

ISSN: 2450-8160

Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka

wydanie specjalne



Warszawa



Editorial Team

Editor-in-chief: *Gontarenko N.*

EDITORIAL COLLEGE:

W. Okulicz-Kozaryn, dr. hab, MBA, Institute of Law, Administration and Economics of Pedagogical University of Cracow, Poland;

L. Nechaeva, PhD, PNPU Institute K.D. Ushinskogo, Ukraine.

K. Fedorova, PhD in Political Science, International political scientist, Ukraine.

Aryslanbaeva Zoya, Ph.D. in Uzbek State Institute of Arts and Culture Associate Professor of "Social Sciences and Humanities."

Karimov Ismoil, Kokand State Pedagogical Institute

Nishanova Ozoda, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Isamova Pakiza Shamsiyevna, candidate of pedagogical sciences, associate professor of Uzbek State World Languages University, Republic of Uzbekistan, Tashkent city.

(wydanie specjalne) Volume-4, № 2 March 2024

ARCHIVING

Sciendo archives the contents of this journal in [ejournals.id](#) - digital long-term preservation service of scholarly books, journals and collections.

PLAGIARISM POLICY

The editorial board is participating in a growing community of [Similarity Check System's](#) users in order to ensure that the content published is original and trustworthy. Similarity Check is a medium that allows for comprehensive manuscripts screening, aimed to eliminate plagiarism and provide a high standard and quality peer-review process.

About the Journal

Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka (HP) publishes outstanding educational research from a wide range of conceptual, theoretical, and empirical traditions. Diverse perspectives, critiques, and theories related to pedagogy – broadly conceptualized as intentional and political teaching and learning across many spaces, disciplines, and discourses – are welcome, from authors seeking a critical, international audience for their work. All manuscripts of sufficient complexity and rigor will be given full review. In particular, HP seeks to publish scholarship that is critical of oppressive systems and the ways in which traditional and/or “commonsensical” pedagogical practices function to reproduce oppressive conditions and outcomes. Scholarship focused on macro, micro and meso level educational phenomena are welcome. JoP encourages authors to analyse and create alternative spaces within which such phenomena impact on and influence pedagogical practice in many different ways, from classrooms to forms of public pedagogy, and the myriad spaces in between. Manuscripts should be written for a broad, diverse, international audience of either researchers and/or practitioners. Accepted manuscripts will be available free to the public through HPs open-access policies, as well as we planed to index our journal in Elsevier's Scopus indexing service, ERIC, and others.

HP publishes two issues per year, including Themed Issues. To propose a Special Themed Issue, please contact the Lead Editor Dr. Gontarenko N (info@ejournals.id). All submissions deemed of sufficient quality by the Executive Editors are reviewed using a double-blind peer-review process. Scholars interested in serving as reviewers are encouraged to contact the Executive Editors with a list of areas in which they are qualified to review manuscripts.

**FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLİSH VA BUNDAY
VAZIYATLARDA HARAKAT QILISH DAVLAT TİZIMINI TASHKIL
ETİSHNING MEYORIY-HUQUQIY ASOSLARI**

Xusanova Sumbul Islamovna,
pedagogika fanlari doktori, professor,
Fuqaro muhofazasi instituti

Anotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish Davlat tizimi faoliyatini tashkil etishga doir meyoriy-huquqiy hujjatlar, ularning mazmun mohiyati va ular bilan belgilangan tartiblar, munosabatlар va tadbirlar bayon etilgan. Respublikamizning aniq maqsad va vazifalarga ega bo'lgan yaxlit milliy tizimining tashkil etilishi va faoliyatining o'ziga xos meyoriy-huquqiy asoslariga ega bo'lgan holda tashkil etilganidan buyon takomillashish bosqichlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tabiiy, texnogen, favqulodda vaziyat, davlat tizimi, vazifa, funksiya, huquqiy asos, faoliyat rejimlari, takomillashtirish.

**НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА ОРГАНИЗАЦИИ
ГОСУДАРСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ
СИТУАЦИЙ И ДЕЙСТВИЙ В ТАКИХ СИТУАЦИЯХ**

Хусанова Сумбул Исламовна
доктор педагогические наук, профессор,
институт Гражданский защиты

Аннотация: В статье описаны нормативные правовые акты Республики Узбекистан по организации деятельности государственной системы предупреждения чрезвычайных ситуаций и действий в таких ситуациях, их содержание, а также установленные ими процедуры, отношения и деятельность. Проанализированы этапы совершенствования с момента создания единой национальной системы нашей республики с четкими целями и задачами и собственной нормативно-правовой базой ее деятельности.

Ключевые слова: природная, техногенная, чрезвычайная ситуация, государственная система, задача, функция, правовая основа, режимы деятельности, совершенствование.

**THE REGULATORY FRAMEWORK FOR THE ORGANIZATION OF THE
STATE EMERGENCY PREVENTION SYSTEM AND ACTIONS IN SUCH
SITUATIONS**



Khusanova Sumbul Islamovna,
Doctor of Pedagogical Sciences, professor,
Institute of Civil Protection

Abstarct: The article describes the normative legal acts of the Republic of Uzbekistan on the organization of the activities of the state emergency prevention system and actions in such situations, their content, as well as the procedures, relations and activities established by them. The stages of improvement have been analyzed since the creation of the unified national system of our republic with clear goals and objectives and its own regulatory framework for its activities.

Keywords: natural, man-made, emergency situation, state system, task, function, legal basis, modes of activity, improvement.

Kirish. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig'i hamda Favqulodda vaziyatlar vazirining buyruqlari va ko'rsatmalariga, O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi. Respublikamiz Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirishda tizimning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilgan holda uning istiqboldagi taraqqiyotini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, maqsadli yaxlit milliy davlat tizimining bugungi kungacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari, takomillashuvi va islohatlari hamda faoliyat tarmoqlarining kengayishini va Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini (FVDT) tashkil etishning meyoriy-huquqiy asoslarini yoritish maqsadga muvofiqdir.

Muammoning qo'yilishi. Oliy bosh Qonunimiz bo'lgan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning asosini inson, uning qadr-qimmati, salomatligi tashkil etadi. Insonning hayoti va yashashga bo'lgan huquqi Konstitutsiyaviy qonun bilan muhofaza qilinadi. Konstitutsyaning 109-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiya) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi, qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tasdig'iga kiritadi. Qonunning 93-moddasiga muvofiq, Oliy Majlisning vakolatlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish, uning muddatini uzaytirish va to'xtatish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash kiradi [1].



O'zbekiston Respublikasining "Favqulodda holat to'g'risida"gi Qonunining 21-moddasiga asosan, Favqulodda holat rejimini ta'minlovchi (saqlovchi) kuchlar va vositalar sifatida FVDT tarkibiga kiruvchi davlat organlari hamda tashkilotlarining kuchlari va vositalaridan ham foydalaniladi. Mazkur qonunga ko'ra, keng qamrovli avariya-qutqaruv ishlari va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar amalga oshirilishini talab etadigan yirik halokatlar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar va favqulodda ekologik vaziyatlarda Favqulodda holat rejimi joriy etiladi [1].

O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirda qabul qilingan "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining 19-moddasida Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish FVDT tomonidan ta'minlanishi, FVDT favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida vakolatlarga ega bo'lgan yoki zimmasida majburiyatlar bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, Toshkent shahar, shuningdek tumanlar, shaharlar hokimliklari hamda tashkilotlarning boshqaruv organlarini, kuchlari va vositalarini birlashtirishi, FVDT hududiy, funksional va axborot-boshqaruv quyi tizimlaridan iboratligi, respublika, mahalliy hamda ob'ekt darajalariga ega bo'lishi belgilangan. Qonunning 20-moddasida FVDTning boshqarish tartibi, boshqaruv organlari hamda 21-, 22-, 23- va 24-moddalarida FVDT faoliyatining kundalik, yuqori tayyorgarlik va favqulodda vaziyat rejimlaridan biri o'rnatilishi va ushbu rejimlardagi asosiy tadbirlar aniq belgilab qo'yilgan [2].

O'zbekiston Respublikasining "Terrorizimga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasiga asosan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi - terrorchilik harakatlari oqibatlarini tugatish yuzasidan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda tadbirlar o'tkazadi [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 mart kundagi "O'zbekiston Respublikasida Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-1378-sون Farmoni respublikamizda FVDTning tashkil etilishiga asos soldi, chunki ushbu farmon ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini tashkil etish haqidagi qarorida Favqulodda vaziyatlar vazirligi zimmasiga favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish hamda favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularda harakat qilishning yagona davlat tizimini tuzish vazifasi yuklandi va amalga oshirildi [4].

Tadqiqot natijalari. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi vazifalariga muvofiq, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari samaradorligini yanada oshirish, sohadagi mavjud muammoli masalalarni hal etish, FVDTni takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlarini belgilash hamda davlat siyosatini samarali amalga oshirishni ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5066-sон Farmoni qabul qilinishi FVDT rivojlanishini yangi davriga va yanada takomillashuviga omil bo'ldi [5,6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5706-son Farmoniga asosan, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha rivojlangan xorijiy tajribani inobatga olgan holda amaldagi tizim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hal etish, sifat jihatidan yangi tizimga o'tish maqsadida, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tarkibida FVDT hamda fuqaro muhofazasining tashkiliy ta'minoti va rejalashtirish Bosh boshqarmasi tashkil etilib, ushbu Bosh boshqarma FVDT faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mas'ul etib belgilagandi [7]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar kunidagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan yo'nalish, maqsad va vazifalarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish hamda sohadagi qonun hujjatlarini takomillashtirish belgilangani FVDTning yanada rivojlanishiga va takomillashuviga ijobjiy omil bo'ldi [8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3030-son Qarori qabul qilinishi FVDTning respublika va mahalliy boshqaruva organlari mutaxassislari va mansabdar shaxslarini tayyorlash tizimini rivojlantirishga, sohada fundamental va amaliy-ilmiy tadqiqotlar, konstrukturlik ishlanmalarini tashkil etish va amalga oshirishga hamda magistr darajasiga ega bo'lgan oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashning yagona tizimini yaratishga, FVDT tarkibiga kiruvchi boshqa vazirliklar va idoralarning qutqaruva tuzilmalarini, shuningdek, mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasidagi keng ko'lamli isloxtalgina asos soldi [9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi "Favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4276-son Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq, Favqulodda vaziyatlar vazirligining FVDT faoliyatini tashkil etish, tashkiliy va ilmiy-texnik ta'minotini amalga oshirish hamda FVDT faoliyatining dolzarb muammolarini muhokama qilish uchun vakillik asosida idoralararo muvofiqlashtiruv va maslahatlashuv organlari (komissiyalar, guruhlar) hamda kollegial organlar (ilmiy, ilmiy-texnik, metodologik va boshqalar)ni tuzish borasidagi vazifa va funksiyalari tartibga solindi va qat'iy mustahkamlandi [10].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2021 yil 16 avgustdag'i "Favqulodda vaziyatlar vaziri birinchi o'rinnbosarining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi Axboroti haqida"gi 1293-IV-son Qarorida, 2019-2021 yillarda favqulodda vaziyatlarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan omillarni hisobga olgan holda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirilganligi biroq, sohada amalga oshirilgan ijobjiy ishlar bilan bir qatorda, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida qator

muammoli masalalar ham mavjudligi qayd etilib, tizimli muammolarni bartaraf etish maqsadida vazifalar belgilandi [11].

Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 5 yanvardagi 2-son qarori bilan tasdiqlangan "Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom"ning 11-bandiga asosan, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarining rahbarlari qutqaruv ishlarini bajarishga FVDTning qutqaruv tuzilmalarini va qutqaruv xizmatlarini jalb etish huquqiga ega ekanliklari belgilangan [12]. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 iyundagi 369-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi tuzilmalari va ularni tashkil etadigan tashkilotlarni belgilash tartibi to'g'risidagi Nizom"ning 27-bandiga muvofiq, fuqaro muhofazasi tuzilmalarining turlari va shaxsiy tarkibi soni FVDTda tashkilot (ob'ekt) rahbarlariga yuklangan vazifalardan kelib chiqgan holda aniqlanadi. Ya'ni belgilangan tashkilotlarda tuziladigan fuqaro muhofazasi tuzilmalari favqulodda vaziyatlarni oldini olish va sodir bo'lganda harakat qilish bo'yicha o'zi tashkil etilgan tashkilot zimmasida bo'lgan vazifalarni bajarish darajasida tuzilgan bo'lishi lozimligi belgilangan [13].

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagagi 525-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha Hukumat komissiyasi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq, Hukumat komissiya FVDTning takomillashtirish va yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash, FVDT faoliyatini yanada takomillashtirish borasida takliflarni hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, FVDTga kiritilgan tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasidagi asosiy tadbirlar bajarilishi to'g'risida hisobotlarini eshitish, FVDTning asosiy tadbirlari rejasi loyihalarini, tahliliy materiallarni ko'rib chiqish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish borasida tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha FVDTning kuch va vositalarini belgilangan tartibda jalb etish masalalarini ko'rib chiqish vazifalari va funksiyalarini bajaruvchi - FVDT faoliyatini nazorat qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi kollegial organ hisoblanadi [14].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 11 avgustdagagi 361-son qaroriga muvofiq, tashkil etiladigan Favqulodda vaziyatlar havfi yoki sodir bo'lganligi haqida O'zbekiston Respublikasi aholisiga xabar berish va ma'lumot (axborot) yetkazishning avtomillashtirilgan tizimini yaratishdan asosiy maqsad va vazifalar - FVDTning rahbar organlarini, kundalik boshqaruv organlarini favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo'lganligi to'g'risidagi ishonchli va tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat bo'ldi [15].

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 sentyabrdagi 744-son qarori bilan tasdiqlangan "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi, shuningdek kemalar, shu jumladan kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish sohasida davlat nazoratini olib borish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq, maxsus vakolatli davlat organi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan olib boriladigan davlat nazorati tadbirlari FVDTning har yil uchun alohida tasdiqlanadigan

"Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha asosiy tadbirlari Rejasি" asosida amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 dekabrdagi 1027-sonli "Tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatlari favqulodda vaziyatlari monitoringi, axborot almashinushi va prognozlash yagona tizimini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Favqulodda vaziyatlari monitoringi, axborot almashinushi va prognozlash Yagona tizimi FVDTning ajralmas qismi hisoblanib, FVDT doirasida favqulodda vaziyatga olib keluvchi xavfli tabiiy-texnogen jarayonlar va hodisalar monitoringi, axborot almashinushi va prognozlash funksiyasini bajaradigan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, joylardagi mahalliy davlat organlari va boshqa tashkilotlarni tuzilmalari (xizmatlar, tashkilotlar, inspeksiyalar, bo'limalar, laboratoriyalar va boshqalar)ni birlashtiradi [16].

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15 fevraldagi 137-son qarori bilan tasdiqlangan "Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish, ulardan foydalanish va ularni qayta tiklash tartibi to'g'risida Nizom"ga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning FVDTdagi bajaradigan funksiyalar, hududlarning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlari prognozini inobatga olgan holda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moddiy resurslar zaxiralarini yaratishlari, ulardan foydalanishlari va qayta tiklash tartiblari hamda tadbirlari belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentyabrdagi 754-son qarori bilan tasdiqlangan "Aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibi to'g'risida Nizom"ga muvofiq, FVDT kuch va vositalarining hamkorlikda harakat qilishini takomillashtirish, shuningdek, ular tayyorgarlik darajasini baholash - FVDTning "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha yillik asosiy tadbirlar rejasiga asosan, qo'mondonlik-shtab, maxsus-taktik va kompleks o'quv mashqlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 apreldagi 171-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, FVDTning asosiy maqsadi va vazifalari, uning tashkiliy-funksional tuzilmasi va faoliyat ko'rsatish tartibi belgilangan, shuningdek, mazkur qarorning 2-ilovasiga asosan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarning FVDT funksional quyi tizimida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funksiyalari hamda 3-ilovasida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining FVDT hududiy quyi tizimida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funksiyalari tasdiqlangan [17].

O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri - fuqaro muhofazasi boshlig'ining 2007 yil 10 noyabr kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi tuzilmalari Nizomini tasdiqlash to'g'risida"gi 3-sonli buyrug'iga asosan, FVDTning ob'ekt darajasidagi tuzilmalarni tuzish va ularni tayyorgarligini ta'minlash vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri - fuqaro muhofazasi boshlig'ining 2008 yil 26 dekabrdagi "Vazirlik va idoralar o'rtasida favqulodda vaziyatlar masalalari bo'yicha kundalik hamkorlik va ma'lumot almashinuvi yo'riqnomasini tasdiqlash va amalga kiritish to'g'risida"gi 3-son buyrug'i bilan FVDTning kundalik o'zaro hamkorlik va axborot almashinuvi tartibi va shakllari tasdiqlangan.

FVDT tomonidan o'tgan yilda bajarilgan ishlar va kelgusi yangi yildagi asosiy vazifalar O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri - fuqaro muhofazasi boshlig'ining har yil boshida qabul qilinadigan buyruqlari bilan tahlil qilinib, tashkiliy ko'rsatmalar, asosiy chora-tadbirlar rejalari va o'qitish-tayyorlash jadvallari tasdiqlanganadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirining 2017 yil 7 noyabrdagi 402-son buyrug'i bilan "Davlat nazorati subektlari tomonidan aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi to'g'risidagi qonun hujjatları talablarining bajarilishini baholash mezonlari" tasdiqlangan. Favqulodda vaziyatlar vazirining 2021 yil 10 noyabrdagi 330-son buyrug'i bilan FVDTda yagona talablar asosida qo'mondonlik-shtab va maxsus-taktik o'quv mashqlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha Uslubiy qo'llanma amalga kiritilgan. Favqulodda vaziyatlar vazirining 2023 yil 28 fevraldagı 50-son buyrug'i bilan FVDTning favqulodda vaziyatlarda aholi evakuatsiyasi tadbirlarini tashkil etish tartibini takomillashtirish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar evakuatsiya komissiyasi to'g'risidagi vaqtinchalik Nizom amalga kiritilgan va sinovdan o'tkazilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, agar O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublika-sining aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchiligidida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalari belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo'llaniladi. Shunga ko'ra, FVDT o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalariga, kelishuv va bitmlariga ham amal qiladi. O'zbekiston Respublikasi tomonidan fuqaro muhofazasi, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasida hukumatlar o'rtasidagi ikkiyoqlama va davlatlararo ko'p tomonlama shartnomalar, kelishuvlar va bitimlar imzolagan.

Xulosa. Yuqorida keltirib o'tilganlardan xulosa qilish mumkinki, FVDT respublikamizning aniq maqsad va vazifalarga ega bo'lgan yaxlit milliy tizimi bo'lib, tashkil etilishi va faoliyatining o'ziga xos me'yoriy-huquqiy asoslariga ega bo'lgan holda tashkil etilganidan buyon o'tgan yillar davomida bosqichma-bosqich rivojlanib va takomillashtirish kelmoqda. Shu bilan birga Yangi O'zbekiston taraqqiyotlar strategiyalariga ko'ra, FVDT faoliyati samaradorligini yanada oshirish, tizim boshqaruva organlari va kuchlarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratish, tizimning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, bugungi kunda tizimdagi mavjud masala va muammolarni hal etish chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb va muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Favqulodda holat to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni.
- 2.O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagи "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
- 3.O'zbekiston Respublikasining "Terrorizimga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 mart kunidagi "O'zbekiston Respublikasida Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-1378-sон Farmoni.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sон Farmoni.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5066-sон Farmoni.
- 7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5706-sон Farmoni.
- 8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sон Farmoni.
- 9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3030-sон Qarori.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi "Favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4276-sон Qarori.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Qonunchilik palatasining 2021 yil 16 avgustdagи "FVV birinchi o'rinnbosarining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi 1293-sон Qarori.
- 12.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 5 yanvardagi "Qutqaruв xizmatlari va qutqaruв tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2-sон Qarori.
- 13.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi fuqaro muxofazasi tuzilmalari va ular tuziladigan tashkilotlarni belgilash tartibi to'g'risidagi Nizomni hamda tuzilmalarni moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash me'yorini tasdiqlash haqida"gi 369-sон Qarori.
- 14.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagи "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha hukumat komissiyasi va hududiy komissiyalar to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 525-sон Qarori.

15.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 11 avgustdag'i "Favqulodda vaziyat ro'y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro'y bergenligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanishni tashkil etish to'g'risida"gi 361-son Qarori.

16.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 dekabr-dagi 1027-sonli "Tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatlari favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognozlash yagona tizimini tashkil etish to'g'risida"gi 1027-sonli Qarori.

17.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 171-sonli Qarori.